

CHIGITLI PAXTANI SAQLASHDA YONG'IN XAVFSIZLIGI TALABLARI

Shodmonkulov Alisher Mamakulovich,

Yuldasheva Mavluda To'ramurodovna

Jizzax politexnika institute

FIRE SAFETY REQUIREMENTS WHEN STORING SEED COTTON

Shodmonkulov Alisher Mamakulovich,

Yuldasheva Mavluda Toramurodovna

Jizzakh Polytechnic institute

Abstract. Cotton, cotton type, cotton quality indicators, farming, cotton picking, bunt, tunnel.

Аннотация. The article provides separate information on the collection, storage and processing of cotton bunches by type of fiber, taking into account its quality indicators, in accordance with the "Instructions for picking and preparing cotton". 12-15 days after the bundling of I and II grade cotton, one tunnel is dug lengthwise and one tunnel is dug crosswise, and for II and IV grade cotton, one tunnel is dug lengthwise and one tunnel is dug crosswise every 5 m.

Annotatsiya. Maqolada paxta to'dalarini jamlash, ularni saqlash va qayta ishlash to'laning tipi bo'yicha, uning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda «Paxta terish va tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma»ga amal qilgan holda har qaysi xo'jalik bo'yicha alohida ma'lumotlar keltirilgan. I va II sort paxta buntlangandan 12, 15 kun o'tgach uzunasiga bir va

ko'ndalangiga bir tunel, II va IV sort paxta uchun uzunasiga bir va ko'ndalangiga har 5 m ga bir tunel kavlanadi.

Kalit so'zlar: Paxta, paxta tipi, paxta sifat ko'rsatkichlari, xo'jalik, paxta terish, bunt, tunel.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda izchil amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida aholi hayoti va sog'lig'i, davlat mulki, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan yaxlit yong'in xavfsizligi tizimi shakllantirildi.

Lekin yong'in xavfsizligi sohasida qabul qilingan qonun hujjatlariga qaramay, bugungi kunda mamlakatimizda aholi, tadbirkorlar, korxonalarni yong'inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish masalalariga tegishli munosabat shakllanmadi[1].

Paxta tayyorlash punktlari va paxta tozalash korxonalarida paxta seleksion, sanoat navlari hamda terish uslublari bo'yicha alohida qabul qilinadi va saqlanadi. Paxta to'dalarini jamlash, ularni saqlash va qayta ishlash tolaning tipi bo'yicha, uning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda «Paxta terish va tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma»ga amal qilgan holda har qaysi xo'jalik bo'yicha alohida amalga oshiriladi.

Har xil zararkunandalar va kasalliklar («qora shira», gommoz, makrosporioz va h.k.) bilan zararlangan paxta alohida qabul qilinadi, jamlanadi, saqlanadi va qayta ishlashga jo'natiladi.


Paxtani, yaxshiroq va uzoq muddat saqlashni to'g'ri tashkil etish maqsadida paxtani jamlashni uning namligini hisobga olgan holda tabaqalab bajarish kerak. Namligi 14%gacha bo'lgan paxtani tozalash bo'limi hududiga, namligi 14%va undan yuqori bo'lgan paxtani esa quritib tozalash sexi (QTS) hududiga joylashtirish kerak. Namligi 20% dan yuqori bo'lgan paxtani kuritib tozalash sexiga yaqin bo'lgan joyga jamlash kerak, vaqtida quritilmasa o'z-o'zidan qizib yong'in chiqishi mumkin[2].

Paxta asosan sentabr, oktabr va noyabr oylarida tayyorlanadi. Paxta tozalash zavodlari shu uch oy davomida bir mavsumda tayyorlangan paxtaning taxminan 20% ini ishlay oladi. Paxtaning qolgan ko'p qismini uzoq vaqt saqlashga to'g'ri keladi.

Paxtani qolgan 80% ni uzoq muddatga saqlashga to'g'ri keladi. Chigitli paxta dala maydonlaridan yig'ishtirib olinib ochiq g'aramlarda (2-rasm) va yopiq turdagi omborlarda (1-rasm) saqlanadi. Chigitli paxta terilgandan keyin ham uning chigitida biologik jarayonlar davom etadi. Buning natijasida uni saqlash vaqtida o'z-o'zidan qizish jarayoni sodir bo'ladi.


Mana shu qizish jarayoni chigitli paxtaning yonib ketishiga sababchi bo'lib qoladi. Paxtaning qizishi va uning oqibatida yonishini oldini olish maqsadida paxta g'aramlangandan so'ng ma'lum vaqtdan keyin tunellar qazilib, qizib ketishni oldi olinadi.

Xuddi shunday yopiq turdagi omborlarda ham paxta qizib ketmasligi uchun bo'ylamasiga tunellar qaziladi va buning natijasida yong'inning oldi olinadi.



1- rasm. 700 t paxta saqlash uchun mexanizadiyalashtirilgan yopiq ombor'

1-N-15210 elevatori; 2-bunker; 3-elevator golovkasi o'rnatiladigan rama;
4-paxta transporter; 5-elekt. tal.



2- rasm. Paxta buntlash maydonchasining sxemasi.

Paxtani uzoq vaqt saqlaganda tola va chigitning tabiiy xususiyatlarining buzilmasligiga yaxshi e'tibor berish kerak. Paxtani yaxshi saqlash uchun kerakli shartlarning asosiysi uni omborlarga joylash vaqtidagi namligi GOST talabiga muvofiq I sort uchun 9,0; II sort uchun 10,0; III sort uchun 11,0 va IV sort uchun 13,0% dan oshmasligi kerak.

Mashinalar bilan terilgan va namligi ruxsat etilgan normadan yuqori bo'lgan chigitli paxta vaqtincha (5 kungacha) saqlash uchun qabul qilinadi. Bunday paxtani joylashda uning balandligi I va II sortlar uchun 4 m dan va qolgan sortlarniki 3 m dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Chigitli paxtani saqlash uchun sigʻimi 750, 1500, 3000, 4500 va 6000 t va temir-beton detallardan yigʻilgan, pishiq yoki xom gʻishtdan qurilgan yopiq omborlar (1-rasm), toʻrt tomoni ochiq shiyponlar yoki butunlay ochiq maydonchalardan foydalaniladi.

Chigitli paxtani ochiq maydonchalarida saqlash uchun paxta tayyorlash punkti hududida yer yuzasidan 400 mm koʻtarilgan maxsus buntlash maydonchalari (2-rasm) tartibli ravishda quriladi. Buntlash maydonchalarining oʻlchamlari 25x14, 22x11 va 11x10 m boʻladi. Saqlanadigan paxtaning

oʻrtacha zichligi 200 kg/m^3 boʻlganda $25 \times 14 \times 3 \text{ m}$ li buntga 560 t va $22 \times 11 \times 8 \text{ m}$ li buntga 380 t I, II va III sort paxta joylash mumkin, IV sort paxtaning namligi yuqori boʻlganligi va tolalarning ilashish kuchi kam boʻlgani uchun odatda yopiq omborlarda saqlanadi.

I va II sort paxta buntlangandan 12, 15 kun oʻtgach uzunasiga bir va koʻndalangiga bir tunel, II va IV sort paxta uchun uzunasiga bir va koʻndalangiga har 5 m ga bir tunel kavlanadi. Tunellarning balandligi 1,5 m, eni 0,6 m boʻlishi kerak. Yopiq omborlarda saqlanadigan paxta uchun har bir boʻlim oʻrtasida bitta quduq kavlanadi yoki orasi ochib qoʻyiladi. Saqlanayotganda qizib ketmasligi va buning natijasida yongʻin chiqmasligi uchun I va II sort paxtani har 5 kunda laborantlar tekshirib turishlari kerak.

Paxtaning temperaturasini aniqlash uchun termoshchup buntning 8 nuqtasida 3 m chuqurlikka, yopiq ombor va shiyponlarda esa 4 nuqtada paxta balandligining yarimigacha kiritilib oʻlchanadi. Agarda paxta temperaturasi sentabr-oktabr oylarida 30° gachavaboshqaoylarda 20° gacha boʻlsa, normal hiosblanadi. Paxtaning temperaturasi keltirilgan chegaradan yuqori boʻlsa yoki ikkinchi marta oʻlchanganda oldingi oʻlchovga qaraganda 2. . 3° ortiq boʻlsa, uni albatta sovitish choralarini koʻrish kerak, sababi, vaqtida bu choralar koʻrilmasa paxtaning tabiiy xususiyatlari buziladi va yongʻin keltirib chiqarishi mumkin.

Buntlarda saqlanayotgan paxta qiziganda undan nam havoni soʻrib olish uchun maxsus statsionar uskuna quriladi (3-rasm). Bu uskuna $25 \times 14 \text{ m}$ li maydonchada metall panjara qopqoqlar bilan yopilgan 14 ta kanal 1 dan iborat boʻlib, bu kanallar trubalar 2 orqali umumiy truba 3ga va ikki bunt dan havo tortadigan VS-10 markali ventilator 4 ga ulangan boʻladi.

14 ... 16	7 ... 10	10	20	75
16 ... 18	5 ... 8	7 ... 8	15	85
18 ... 20	5 ... 7	7 ... 8	10	95
20 dan yuqori	5	5	10	istalgancha

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017 yil 23 maydagi PQ-2992 son qarori.
2. F.B. Omonovning umumiy tahriri ostida «Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik» «Voriz-nashriyot» Toshkent-2008
3. G‘.J. Jabborov, T.U. Otametov, A.X. Hamidov «Chigitli paxtani ishlash texnologiyasi» Toshkent «O‘qituvchi» 1987.